O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 13 - iyun 363-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi 144-sonli farmoni ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 144-sonli farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30 maydagi “O‘zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillasahtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 144-sonli farmoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni ijrosi bo‘yicha belgilangan ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish yuzasidan, Toshkent viloyati hokimining ayrim qarorlariga kiritilayotgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur farmon bilan quyidagilar inobatga olinsin;

So‘ngi yillarda mamlakatimizda seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligi va seysmik xavfsizlikni ta’minlash sohalarini rivojlantirish hamda soha tashkilotlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bugungi kunda bu sohalardagi islohatlarni izchil davom ettirish, aholining seysmik xavfsizligini ta’minlashning yangi usullarini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda;

Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta’minlash sohalarida islohatlarning aniq manzilligini ta’minlash, sohalarga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini 2025-yilgacha takomillashtirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda - Konsepsiya) hamda uning maqsadli ko‘rsatkichlari va indikatorlari 1- va 1a-ilovalarga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini 2025-yilgacha takomillashtirish konsepsiyasini 2022-2023 yillarda amalga oshirish “yo‘l haritasi” (keyingi o‘rinlarda – “yo‘l haritasi”) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki, Konsepsiyani 2024-2025-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l haritasi” Vazirlar Mahkamasi tomonidan alohida tasdiqdanadi.

2. Belgilansinki, Konsepsiya hamda uning maqsadli ko‘rsatkichlari, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutadi:

a. seysmologiya yo‘nalishi doirasida:

zilzilalarning vujudga kelish mexanizmi va tabiatining hamda zilzila darakchilarining turli geodinamik jarayonlarda namoyon bo‘lishini tadbiq qilish mexanizmini takomillashtirish;

hududlarni makroseysmik ballarda va muhandislik ko‘rsatkichlarda seysmik mikrohududlashtirish bo‘yicha onlayn xaritalarni ishlab chiqish;

turli darajadagi tektonik yer yoriqlarining o‘rta masshtabdagi xaritasini yaratish va ularning seysmik potensialini baholash;

b. bino va inshootlarning zilzilabardoshligini ta’minlash yo‘nalishi doirasida:

yakka tartibdagi uy-joylarning zilzilabardoshligini ta’minlash bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish;

bino va inshootlar hamda suv omborlari to‘g‘onlarining zilzilabardoshlik darajasini doimiy kosmik monitoring qilish tizimini joriy etish;

v) seysmologik kuzatuvlar tarmog‘ini takomillashtirish yo‘nalishi doirasida:

avtomatlashtirilgan kompleks-prognostik stansiyalarni ko‘paytirish hisobiga respublika hududini to‘liq monitoring qilish imkoniyatini kengaytirish;

milliy seysmik kuzatuvlar tarmog‘ining xalqaro seysmik kuzatuvlar global tizimiga kiritilgan stansiyalar bilan doimiy aloqalarini ta’minlash;

g) seysmik xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi davlat boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtirish yo‘nalishi doirasida:

seysmologiya sohasida ilm-fan va ta’limni rivojlantirish hamda aholi va davlat organlarini zilzilada harakat qilishga tayyorlash faoliyatini tartibga solish;

respublika hududida qurilayotgan bino va inshootlar, suv omborlari va gidrotexnika inshootlari zilzilabardoshligini nazorat qilish tizimini takomillashtirish.

3. Quyidagilar:

Konsepsiya va “yo‘l xaritasi”da belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta’minlash yuzasidan davlat organlarining birinchi rahbarlariga shaxsiy mas’uliyat yuklatilsin;

Seysmologiya, seysmik chidamli qurilish hamda O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligi bo‘yicha idoralararo ilmiy-texnik kengash (keyingi o‘rinlarda - Kengash) davlat organlari tomonidan Konsepsiya va “yo‘l xaritasi”da belgilangan chora-tadbirlarning sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish uchun mas’ul etib belgilansin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari Shukrullo Mahmudov hamda viloyat Qurilish bosh boshqarmasi boshlig‘i Elmurod Po‘latov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b. **Z.Mirzayev**

Toshkent viloyat hokimining
2022 yil 13 iyundagi
363-10-0-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati hokimining ayrim qarorlariga kiritilayotgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-apreldagi “Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5392-son Farmoniga asosan Toshkent viloyati hokimining 2018-yil 21-apreldagi 308-sonli qarori quyidagi so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

“O‘zbekiston Respublikasi hududida qurilayotgan binolar va inshootlarning zilzilabardoshligini ta’minlash bo‘yicha zarur choralar ko‘rish, seysmik xavfsizlikning ta’minlanishini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normative hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash hamda nazorat qilish”.